

PEDAGOGIK KAMMUNIKATSIYA VA TIL MADANIYATI: MAKTAB MUHITIDA SAMARALI MULOQOT STRATEGIYALARI

Qo'qon universiteti Andijon filiali
Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti
"Ingliz filologiyasi" kafedrası
Ingliz tili yo'nalishi 2- bosqich 24_09-guruh
Talabasi

Ismoilova Oyishabegim Xayrullo qizi

Ismoilovaaisha327@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Umrzakova Muattar Oybek qizi

"Ingliz filologiyasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola maktab ta'limi jarayonida pedagogik kommunikatsiya va til jarayonida pedagogik kommunikatsiya va til madaniyatining ahamiyati chuqur ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Pedagogik kommunikatsiya o'qituvchi va o'quvchi ortasidagi ta'lim tarbiyaning hamda psixologik munosabatlarini tartibga solishga asosiy vosita. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki pedagogik muloqot mavjud bo'lgan ta'limda o'quvchilar bilimni o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi, ularni o'qishga bo'lgan qiziqishi oshadi va harakatlari ko'payadi. Hozirgi kunda turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llari mavjud. Pedagogik adabiyotlar va maktablar amaliyotida asosan uchta shakllarni qamrab olgan: ommaviy, guruhli va individual. Til madaniyati pedagogik kommunikatsiyaning ajralmas tarkibi bo'lib, u nutqning adabiy til me'yoriga mosligi, aniqligi, mantiqiyliigi va muloqot etikasi bilan belgilanadi. O'qituvchining og'zaki va yozma nutqi o'quvchilar uchun namuna vazifasini bajaradi shu sababli pedagog nutqining sifatli ekanligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada pedagogik kommunikatsiyaning ikki asosiy yo'nalishi – informatsiya va interaktiv – batafsil o'rganiladi. Informatsiya yo'nalishi o'qituvchi tomonidan bilimning tizimli, aniq va lo'nda yetkazilishi nazarda tutadi, interaktiv yo'nalishi esa o'quvchilarning savol- javob, muhokama va ijodiy faoliyat orqali bilim almashishga jalb etadi. Hamda buning asosiy mohiyati, uning maktab ta'limidagi vazifalari, til madaniyatining pedagogik ahamiyati hamda samarali muloqot strategiyalari mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar asosida keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik kommunikatsiya, til madaniyati, nutq madaniyati, maktab ta'limi, samarali muloqot, pedagogik strategiyalar.

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik kommunikatsiya masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki bugungi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalari rivojlantirishni ham asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Ilmiy adabiyotlarda kommunikatsiya ta'lim jarayoning markaziy mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli pedagogik kommunikatsiya va til madaniyati masalalari maktab pedagogikasining markaziy muomalalaridan biriga aylanmoqda [5].

Graham va Perin o'z tadqiqotlarida samarali muloqot tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalash, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish imkoniyatlari kengayishini ta'kidlaydi [5]. Ayniqsa, maktab yoshidagi o'quvchilar uchun o'qituvchilar nutqi va muloqot uslubi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Pedagogik kommunikatsiya o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi eng muhim vositalardan biri sifatida baholanadi, uning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligini alohida korsatib o'tadi[1]. O'qituvchining nutqi adabiy til me'yorlariga mos, mantiqli va ravon bo'lsa, o'quvchilarda ham shunday konikma paydo bo'ladi. Bu jarayonda nafaqat so'zli nutq, balki gestikulyatsiya, mimika intonatsiya va kontekstual vaziyatlar ham muhim ro'l o'ynaydi. Til esa o'quvchilarning fikrini aniq ifodalash, nutq madaniyati va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Pedagogik mahoratning asosiy poydevori kasbiy bilimlardir. O'qituvchining bilimlari, bir tomomdan, o'zi o'qitadigon predmetlarga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ularni o'zlashtiradigon o'quvchilarga qaratilgan[8]. Shuningdek, kirish qismida zamonaviy pedagogik yondashuvlar —interfaol, integrativ va kontekstual metodlar o'rganiladi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va konstruktiv muhokama qilishga undaydi. Shu bilan birga, global ta'lim jarayonida kommunikativ va lingvistik kompetensiya ularning shaxsiy va akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Pedagogik kommunikatsiyaning nazariy asoslari. Pedagogik kommunikatsiya tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganiladi. Risnazarovani ta'kidlashicha, pedagogik kommunikatsiya bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi axborot almashinuvi emas, balki o'zaro ta'sir va hamkorlik jarayonidir[3].Ushbu jarayonda ta'lim mazmunini yetkazish, o'quvchini faollashtirish va shaxs sifatida rivojlantirishga hizmat qiladi. Hamda ularning ma'naviy–axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar va axloqiy tamoyillar mohiyatini va u ega bo'lgan dunyo qarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora

barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etayotgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi[8]. Hyland pedagogik kommunikatsiyaning dialogik shaklini eng samarali muloqot turi sifatida baholaydi [4]. Dialog asosida tashkil etiladigan ta'lim jarayonida, o'quvchilar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, savol berish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Til madaniyatining pedagogik ahamiyati. Til kishing jamiyatida yaratilgan bo'lib , aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning ijtimoiy tabiati ayrim shaxsga emas, balki butun jamiyat uchun xizmat qilishida namoyon bo'ladi.Til madaniyati pedagogik kommunikatsiyaning markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, u o'qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik ta'sir kuchini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda til madaniyati nutqning adabiy til me'yorlariga mosligi , grammatik jihatdan to'g'riligini , mantiqiylikini, aniqligi hamda muloqot etikasi bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishi sifatida talqin etiladi[2].O'qituvchining nutqi nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki o'quvchilarga estetik, axloqiy va intellektual ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy omil hamdir.Nizomitdinovaning ta'kidlashicha, maktab muhitida o'qituvchi nutqi o'quvchilarning tilga bo'lgan munosbatini shakllantiradi va ularning nutqiy savodxonligiga bevosita ta'sir ko'rsatidi[2]. Agar pedagog o'z nutqida adabiy til me'yorlariga amqal qilsa, mantiqli va ravon fikr bildirs , o'quvchilar ham asta sekin shunday nutqiy ko'nikmalarni egallaydi. Aksincha, o'qituvchi nutqida noaniqlik, mantiqsizlik yoki qo'pol ifodalar uchrasa, bu holat o'quvchilarning nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Til madaniyatining pedagogik ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilarning bilimni to'g'ri qabul qilishi va to'g'ri tushunishini ta'minlaydi. Sayliyeva (2025) o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayonida nutq madaniyatiga rioya qilinishi dars samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi [7]. O'qituvchining aniq va tushunarli nutqi o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ularni faol muloqotga chorlaydi.Shuningdek til madaniyati o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Madaniyatli nutq o'qituvchilarda o'z fikrini erkin va ishonch bilan ifodalash, suhbatdoshni hurmat qilish va muloqot etikasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi[1]. Shu bois har doim pedagoglar til madaniyatiga doimiy ravishda rivojlantirib borishi, o'z ustida ishlashi va mahoratini oshirishi kerak va e'tiborda bo'lishi kerak.

Maktabda nutq madaniyati shakllantirish muammolari. Maktab ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va qisqartirilgan muloqot shakllarining keng tarqalishi o'quvchilarning nutqiy

savodxonligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, o'quvchilar orasida og'zaki va yozma nutqdagi xatolar sonining ortib borishi aynan til madaniyatiga yetarli e'tibor qaratilmayotganidan dalolat beradi[6]. Hozirda maktablarda nutq madaniyatini shakllantirishda bir qator muammolar mavjudligi ko'rsatiladi [1]. Jumladan, ayrim pedagoglarning o'z nutqiga e'tibor qaratmasligi va dars jarayonlarida dialogik muloqotning yetishmasligi hamda yozma ishlar ustida tizimli ishlanmasligi ushbu muammolar sirasiga kiradi. Bu holatlar o'quvchilarning nutqiy faolligini pasaytiradi va ularning o'z fikrini erkin ifodalashga va yetkazib berishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarning lug'at boyligining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham nutq madaniyatini shakllantirishda muhim muammo hisoblanadi. Hyland (2019) ikkinchi til yoki akademik tilni o'rganish jarayonida lug'at bilan tizimli ishlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [6]. Agar o'quvchilar yetarli so'z boyligiga ega bo'lmasa, ular o'z fikrini aniq va mantiqli ifodalashda qiynaladi.

Nutq madaniyatini shakllantirishdagi yana bir muammo – dars jarayonida o'quvchilarning nutqiy faolligiga yetarli imkon berilmasligidir. Ko'plab hollarda darslar monologik shaklda o'tiladi, bu esa o'quvchilarning muloqotga kirishini cheklaydi[3]. Shu sababli maktab ta'limida nutq madaniyatini shakllantirish muammolarini bartaraf etish uchun pedagoglar tomonidan maxsus metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi zarur [1; 6].

Samarali pedagogik muloqot strategiyalari. Zamonaviy ta'lim jarayonida samarali pedagogik muloqot strategiyalarini qo'llash ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda samarali muloqotni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro tushunish, hamkorlik va ishonchiga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi jarayon sifatida tasvirlanadi[3]. Birinchi navbatda, aniq va tushunarli nutqdan foydalanish samarali muloqotning asosiy strategiyasi hisoblanadi. O'qituvchi murakkab ilmiy tushunchalarni sodda va mantiqli tarzda bayon qila olsa, o'quvchilar mavzuni osonroq qabul qiladi [6]. Hyland ta'kidlaganidek, akademik tilni o'rgatishda aniqlik va mantiqiy izchillik muhim ahamiyatga ega [6]. Shu sababli pedagog o'z nutqini rejalashtirishi, keraksiz, takror va chalkash ifodalardan qochishi zarur. Ikkinchi muhim strategiyalardan biri, hurmat va hamkorlikka asoslangan muloqotni tashkil etishdir. Risnazarova o'z tadqiqotlarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hurmatga asoslangan munosabat mavjud bo'lgan ta'lim muhitida o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalashga bo'lgan intilishi ortishini ta'kidlaydi [3]. Bunday muhitda o'quvchilar xato qilishdan qo'rqmaydi, savol berishga va muhokamalarda faol ishtirok etishga harakat qiladi. Uchinchi strategiya sifatida aytish mumkinki savol-javob va

muhojama metodlaridan samarali foydalanishni ko'rsatish mumkin. Graham va Perin o'quvchilarni muloqotga jalb etuvchi savollar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5]. Savollar o'quvchilarni fikrlashga undaydi, ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi va mustaqil xulosalar chiqarishga yordam beradi. Shuningdek, ijobiy va konstruktiv fikr bildirish ham samarali muloqot strategiyalaridan biridir. Saydov o'qituvchining ijobiy baholashi o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishini va ularni faolroq bo'lishga undashini ta'kidlaydi [1]. Shu bois pedagog tanqidiy fikr bildirayotganda ham muloyimlik va pedagogik etika qoidalariga amal qilishi lozim.

Xulosa: Mazkur ilmiy maqolada maktab ta'lim jarayonida pedagogik kommunikatsiya va til madaniyatining tutgan o'rnini, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri hamda samarali muloqot strategiyalari ilmiy-nazariy jihatdan batafsil tahlil qilindi. Avvalo o'qituvchi dars berar ekan uni puxta reja qilishi va kommunikatsiya nutq ustida ko'proq ishlashi va o'quvchilarni ko'proq nutq kommunikatsiyani shakllantiradigan qiziqarli o'yinlar va hamda zamonaviy usulda ko'plab o'quvchilarni qiziqishlarni uyg'otishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagogik kommunikatsiya va til madaniyati maktab ta'limining ajralmas qismi bo'lib, ularni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Ilmiy manbalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, o'qituvchining madaniyatli nutqi, yosh avlod kelajagi uchun muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saydov J. Pedagogning yozma va og'zaki nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2023.
2. Nizomitdinova O. N. Nutq madaniyati va pedagogik muloqot. – Toshkent: O'qituvchi, 2025.
4. Risnazarova A. Pedagogik kommunikatsiya asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2025.
5. Hyland K. Academic discourse. – London: Routledge, 2016.
6. Graham S., Perin D. Writing Next: Effective Strategies to Improve Writing. – Washington: Alliance for Excellent Education, 2007.
7. Hyland K. Second Language Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
8. Sayliyeva M. M. Ta'lim jarayonida nutq madaniyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2025.
9. Xolov O.Ch. Ummumiy pedagogika -Toshkent : NIF MSH 2023.